Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishda o'qitishning tashkiliy-pedagogik shartlari	660
Rahmonova Zulayho Abdumalikovna, Buzrukov T. O.	
Professional sportda faol ayollar salomatligining monitoringi va ularni sog'lom turmush tarziga yo'naltirish strategiyalari	663
Raimov Xamid Soatovich	
O'quvchilarni jismoniy tarbiyalashda harakatli o'yinlardan foydalanish	666
Ravshanova Sabina Bahodir qizi	
Art-terapiyaning bola "men"ining rivojlanishidagi ahamiyati	669
Raxmatova Gulobod Tuyboy qizi	
Maktabgacha yosh davr – bolalar ijtimoiylashuvining muhim omili sifatida	672
Sanayeva Surayyo Bobonazarovna, Eshmirzayeva Mohichehra Ikrom qizi	
5E modeli asosida darsni loyihalash: nazariya va amaliyot uyg'unligi	676
Shodiyeva Matluba Jo'rayevna	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti jamoasining psixologik xususiyatlari	681
Shukrullayev Ozod Arzuyevich	
Talabalarda pedagogik e'tiqodni shakllantirishning variativ modeli va uning asosiy komponentlari	684
Sodiqova Dinara Alisher qizi	
Matn bilan ishlash bosqichlari va ularning ingliz tilini o'rgatishdagi didaktik ahamiyati	687
Soliyev Umidjon Yulchivoyevich	
Narsalarni sanash, miqdorni belgilash uchun qo'llaniladigan matematik vositalar, matematikaning asosiy tushunchalari	691
To'rayeva Kamola Vosidjon qizi	
O'smirlar xulq-atvoriga ommaviy madaniyatning ta'siri	694
Umarova Navbahor Shokirovna, Babayeva Saida Juman qizi	
Nafas olish mashqlarini jismoniy imkoniyati cheklangan talabalarning adaptiv imkoniyatlariga ta'siri	698
Valiyeva N. Y.	
Syujetli-rolli o'yinlar orqali maktabgacha yoshdagi bolalarda kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish	702
Xalilova Dilnoza Furqatovna	
Talabalar imtihon oldi qo'rquv va xavotirlarining psixologik omillari	705
Xolmatov Zafar Muxtorjon o'g'li	
Umumiy va noorganik kimyo fanini simmetrik yo'nalishdagi tuzilmaviyligini takomillashganligi	708
Xolmurodova Laziza Erkinovna, Xudoyqulova Intizor G'ayrat qizi	
Umumta'lim maktablarida inson resurslarini rivojlantirishga doir zamonaviy boshqaruvning asosiy tamoyillari	711
Xusanov Xasanjon Xusanxo'ja o'g'li	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tanqidiy fikrlashini rivojlantirish	716
Yusufaliyeva Gulnora Abdurahmonovna	
Dirijyor-xormeysterlik bo'yicha kasbiy-kompetentlikni shakllantirishning nazariy asoslari	721
Z. A. Nuraliyeva	
Boshlang'ich maktab o'quvchilarini o'qitishda kompetensiyaga asoslangan yondashuv	724
Zaripova Muslima Qurbonovna	
Xorijiy tajribalar asosida o'quvchilarda kritik fikrlashni rivojlantirishda integrativ yondashuvning ahamiyati	727
Zokirova Ma'suma Qahramonjon qizi	
Norasmiy va informal ta'limni tan olishning konseptual asoslari va rivojlantirish yo'llari	730
Anvar Allabergenov	
Методы совершенствования слуховых навыков через цифровой сторителлинг в начальных школах	735
Раимова Малохатхон	
Biologiya darslari ekologik ta'lim va tarbiyani rivojlantirish omili sifatida	740
Quldosheva Dilso'z Sunnatovna	
Xalqaro futbol musobaqalari statistikasi asosida o'yin strategiyalarini tahlil qilish	743
Davranov E. O.	
Особенности проведения занятий по биологии с применением современных педагогических технологий	748
Койилова Мехринисо	

Boshqaruv kadrlar zaxirasini samarali shakllantirishda gender tenglikni ta'minlashning ijtimoiy-psixologik omillari	755
<i>Abdullajanova Dilnozaxon Sultanbekovna</i>	
Ijtimoiy tarmoqlar va raqamli kommunikatsiyaning zamonaviy o'zbek va ingliz tillariga ta'siri.....	761
<i>Abdullayev Shaxobiddin Abduali o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida stem yondashuvi asosida muhandislik ko'nikmalarini rivojlantirishning dolzarbligi.....	765
<i>Abdullayeva Moxinur O'lmasboy qizi</i>	
Proporsiyalar siri.....	769
<i>Arabboyeva Zamiraxon Tadjibayevna</i>	
Zamonaviy ta'limda kreativ yondashuvlar: zamonaviy metodlar va amaliy misollar asosidagi tahlil	773
<i>Askarova Zilolaxon Nurmuxamadovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik savodxonligini rivojlantirish kompetentsiyasi	777
<i>Eshmurodova Dilobar Nizom qizi</i>	
Havoning nisbiy namligini aniqlash.....	781
<i>Hasanboyeva Diyoraxon, Tojaliyeva Dilyora</i>	
Yevropa mamlakatlarida ta'lim-tarbiya masalalarining olib borilishi tahlili (Italiya va Fransiya maktablari misolida)	784
<i>F. F. Xalilov, Ibodullayeva Dildora Shukrulla qizi</i>	
Individual va differensial yondashuvlarning boshlang'ich ta'lim metodikasi bilan integratsiyasi.....	787
<i>Jinayeva Dilrabo Abdusalomovna</i>	
Blokcheyn texnologiyalari va undan foydalanish yo'llari.....	791
<i>Jomonqulova Fazilat Esirgapovna</i>	
Neyropedagogik yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv-bilish faoliyatini shakllantirish.....	794
<i>Jumayeva Mahbuba O'ktam qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish texnologiyasi	798
<i>Mirsaidova Maxbuba</i>	
Korpus lingvistikasida lingvostatistik tahlil metodi	801
<i>Nuriddinov Abrorbek Sayfiddin o'g'li</i>	
Tarbiyalanuvchilarni sensomotorikasining psixologik strukturasini.....	804
<i>Parmonova Laylo Iloxomovna</i>	
Maxsus maktabgacha tarbiya muassasalarida bolalar nutqining ohang, ritm va sur'atini tarbiyalash metodikasi.....	808
<i>Saydaliyeva Xojiya Abduljalil qizi</i>	
Pedagogik faoliyatda shaxslararo munosabatlarning ijtimoiy-psixologik jihatlari	812
<i>Shakarboeva Shaxnoza Abdulakimovna</i>	
Talabalarda hunarmandchilik ko'nikmalari va ijodiy salohiyatini rivojlantirishning psixologik-pedagogik asoslari.....	816
<i>Sharipova Go'zal Sodiqovna</i>	
Faxriyorning doston yaratishdagi mahorati va ularning badiiylilik xususiyatlari	820
<i>Tangirova Dilbar</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari metodik tayyorgarligini takomillashtirishda elektron ta'lim resurslaridan foydalanish.....	824
<i>Turanova Iroda Egamberdi qizi</i>	
Talabalarni maktabgacha ta'lim tashkiloti va ota-onalar hamkorligini tashkil etishga o'rgatishning metodik asoslari	827
<i>Turdiqulova Luiza Zayniddinovna</i>	
O'zbekistonda til ta'limida innovatsiyalar: sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar yondashuvi	831
<i>Umarova Iroda Shavkatjon qizi</i>	
Aqli zaif o'quvchilar bilan psixokorreksion ishlarda qo'llaniladigan metodlar.....	835
<i>Usmanova Nilufar Ilhom qizi</i>	
Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning kreativ o'qish madaniyatini shakllantirishda sun'iy intellektidan foydalanish	840
<i>Xayitova Firuza Abdullayevna</i>	
Oliy o'quv yurtlarida talabalar ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishda innovatsion hamkorlik modellari samaradorligi	844
<i>Xaqqulov Komil Yusupovich</i>	



Ta'limda raqamli texnologiyaning o'rni.....	847
<i>Zebuniso Nurtayeva Murodali qizi</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarni pedagogik faoliyatga tayyorlashning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish .	852
<i>Abduraxmonova Sayyoraxon Shaxobidinovna</i>	
Направленное обучение борцов самостоятельному управлению нагрузкой в тренировке по частоте сокращений сердца	856
<i>Алишер Базарбаевич Ашуралиев</i>	
Педагогические возможности развития креативного мышления студентов педагогических вузов	859
<i>Каримова Барно Эргашевна</i>	
Инклюзивное образование: интеграция теоретических основ и практических методов для формирования эффективной образовательной среды	862
<i>Л. З. Намазбаева</i>	
Влияние славянской мифологии на русскую литературу	866
<i>Хайдаров Рамазон Комилжон угли</i>	
Совершенствование методики преподавания русского языка в нефилологических аспектах	871
<i>Ходжибекова М. А.</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishida qurish-yasash faoliyatlarini tashkil etishning ahamiyati.	875
<i>Sultonova Nurxon Anvarovna</i>	
Xorijiy mamlakatlarda maktabgacha ta'limning o'ziga xos xususiyatlari va tarbiyachi faoliyatining mazmuni.....	878
<i>Nazirova Guzal Malikovna</i>	
Творческий подход к формированию личности будущего воспитателя	881
<i>Халкузиева Дилноза Баходировна</i>	
Maktabgacha ta'lim muassasasida huquqiy tarbiyani amalga oshirish yo'llari	884
<i>Karimova Umida Sharopovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda akmeologik yondashuvni rivojlantirishning nazariy asoslari.....	887
<i>Mirzayev Shavkat Turdibayevich</i>	
Psixolog talabalarda liderlik kompetentligini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari	890
<i>Qurbanova Surayyo Tuynazar qizi</i>	
Роль самостоятельного обучения в формировании творчества учащихся	894
<i>Курбанова Бузайнаб Нурмухаммадиевна</i>	
Ingliz tili darslarida yuqori sinf o'quvchilarini madaniyatshunoslik yondashuvi asosida umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash metodikasi	899
<i>Saxoddinova Muhayyo Eshmamat qizi</i>	
Harbiy ta'lim mashg'ulotlarida modulli texnologiyalardan foydalanish.....	904
<i>Usmonov Adxam Abduxamidovich</i>	



BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARIDA KITOBXONLIK SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH KOMPETENTSIYASI

Eshmurodova Dilobar Nizom qizi

Guliston davlat universiteti Boshlang'ich ta'lim metodikasi
kafedrası stajyor-o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik savodxonligi kompetentsiyasini rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlariga bag'ishlangan. Maqolada kitobxonlik savodxonligining mohiyati, uning kichik maktab yoshidagi bolalar uchun ahamiyati, ushbu kompetentsiyani shakllantirishning samarali usullari, vositalari va pedagogik yondashuvlari tahlil qilinadi. Shuningdek, o'qishga qiziqishni uyg'otish, matnni tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish va mustaqil kitobxonlik madaniyatini shakllantirish yo'llari ko'rsatib o'tiladi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf, o'quvchilar, kitobxonlik savodxonligi, kompetentsiya, rivojlantirish, usullar, vositalar, pedagogika, ta'lim.

Abstract: This article is dedicated to the theoretical and practical aspects of developing reading literacy competence in primary school students. The article analyzes the essence of reading literacy, its significance for children of primary school age, and effective methods, tools, and pedagogical approaches for forming this competence. Furthermore, it outlines ways to foster interest in reading, develop text comprehension skills, and cultivate a culture of independent reading.

Key words: primary school, students, reading literacy, competence, development, methods, tools, pedagogy, education.

Аннотация: Данная статья посвящена теоретическим и практическим аспектам развития компетенции читательской грамотности у учащихся начальных классов. В статье анализируются сущность читательской грамотности, её значение для детей младшего школьного возраста, эффективные методы, средства и педагогические подходы к формированию данной компетенции. Также указываются пути пробуждения интереса к чтению, развития навыков понимания текста и формирования культуры самостоятельного чтения.

Ключевые слова: начальные классы, учащиеся, читательская грамотность, компетенция, развитие, методы, средства, педагогика, образование.

KIRISH

Boshlang'ich sinflarda o'quv yillari bo'yicha taqsimlangan va o'quvchilarning o'zlashtirishlari lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning mazmuni hamda hajmi belgilanadigan maxsus davlat hujjati – o'quv dasturi mavjud emasligini ta'kidlab o'tamiz. Biz bunday dasturni ishlab chiqishimiz lozim edi, ammo u umumiy vazifa – o'qitish kursining ilmiy va metodologik asoslarini aniqlash hamda asosli ifodalashni muvaffaqiyatli hal etish natijasi bo'lishi mumkin. Boshqacha aytganda, bizga o'sib borayotgan va rivojlanayotgan inson egallaydigan bilish va voqelikni qayta o'zgartirish usuli sifatida kitob o'qishni ifodalash, hamda rejalashtirilgan o'quv faoliyatining o'ziga xosligini ta'minlovchi majmuani o'rganishga mo'ljallangan ahamiyatli tarkibiy qismlarni tavsiflash lozim edi. Mulohaza va tahlilning dastlabki nuqtasi – bu kitob bo'lishi kerak edi.

Boshlang'ich ta'limdagi zamonaviy o'zgarishlar va o'quv jarayonini optimallashtirish bevosita boshlang'ich sinf o'quvchisi shaxsini rivojlantirish bilan bog'liq. Shaxsiy rivojlanish, olimlar va soha mutaxassislarining fikricha, axborot oqimini boshqarish qobiliyatisiz amalga oshirilmaydi. Bundan kelib chiqib, shuni ta'kidlash kerakki, o'quvchilarda kitobxonlik, kitobga qiziqishni oshiradigan kompetentlikni shakllantirish – boshlang'ich ta'limni modernizatsiyalashning dolzarb muammolaridan biridir.

Kitobxonlik kompetentsiyasini rivojlantirishning natijaviy maqsadi – kitob olamida erkin, mustaqil harakatlanish imkoniyatini shakllantirishdir. Hozirgi vaqtda axborot jamiyati talablari va boshlang'ich ta'lim dasturlarida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik kompetentsiyasini rivojlantirish tizimining muayyan qonun-qoida-

larga asoslangan strategik boshqaruv tizimi mavjud emas. Shu sababli ham o'quvchilarda, ayniqsa boshlang'ich sinf o'quvchilarida, kitobxonlik ko'nikmalarini shakllantirish masalasi bugungi ta'lim uchun o'z dolzarbligini namoyon etmoqda. Bunga yechim topish maqsadida tadqiqotchilar va soha vakillari tomonidan turli ilmiy izlanishlarning amalga oshirilayotganligi – quvonarli holat, albatta. ^[3]

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bolani kitoblar olamida qanday harakat qilishini o'rgatish g'oyalari XIX asrda paydo bo'lgan. Bolalar uchun ilk kitobxonlik ko'rsatkichlari ham yo'q emas. Masalan, 1853- va 1862-yillarda V.I. Vodovozov hamda F.G. Tollemalarning izlanishlari ayni shu ko'rsatkich ildizlari hisoblanadi. Keyinchalik, XX asrning 20-30-yillariga kelgach, maktablarda kutubxona darslari shakllantirila boshlangan.

Bunda eng asosiy maqsad – kichik o'quvchi yoshida bo'lgan bolalarni kutubxona bilan tanishtirish va albatta, mustaqil ravishda kitob o'qishning manfaatli ekanligi, kelajak uchun foydali tomonlari, umumiy qilib aytganda, inson hayotidagi ahamiyati haqida tushuntirish ishlarini olib borish bo'lgan. Hattoki, bu borada kitobxonlik yuzasidan o'quvchilarda savodxonlikni takomillashtirish bo'yicha uslubiy tavsiyalar ham ishlab chiqilgan.

Xususan, rus olimi V.A. Flerov qalamiga mansub bo'lgan va o'tgan asrning 1949-yilida kutubxona-bibliografik bilimlarni targ'ib qilish bo'yicha birinchi dasturlar, hamda kitobxonlarning turli guruhlar uchun kutubxona darslarini o'tkazish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar paydo bo'lgan. [4] Kitobxonni shakllantiruvchi pedagog uchun hamda mustaqil o'qish san'atini o'rganuvchi o'quvchilar uchun kitob qanday asosiy ma'noga ega? Mazkur savolni hal etish uchun biz kitobning ijtimoiy ahamiyati nuqtai nazaridan uning ta'riflariga murojaat etdik. Bunday ixcham ta'riflardan birini A. Gersen keltiradi: "...yozma ifodalangan va umumiy foydalanishga taqdim etilgan tajriba – bu kitobdir." Bunday ta'riflarni biz yana kitobga e'tiborlarini qaratgan o'tmish va hozirgi zamonning boshqa ko'pgina buyuk allomalarining ta'riflarida uchratamiz: "suhbatdosh", "ustoz", "mash'ala", "o'qituvchi", "do'st", "bebaho meros", "inson orqali ko'rinadigan olam", "xalqlar tarixi", "o'tmish tajribasi", "inson aqlining merosi", "fikir kemasi", "inson kashf etgan buyuk mo'jiza" – bu va shu kabi bolalikdan o'zlashtirilgan tasavvurlar kitobni kashf etgan inson uchun g'urur hissini uyg'otadi, kitob oldida, biz uchun zarur bo'lgan va insoniyat tomonidan to'plangan tajribani saqlash va yetkazish vositasi sifatida, e'zozlash hissini tug'diradi. ^[3]

Kitob va kitobxonga bag'ishlangan ishlarni o'rganish, kichik maktab o'quvchilarining o'quv faoliyatiga kiritiladigan ob'ektlar orasida kitob eng murakkab hodisani ifodalashini ta'kidlash imkonini beradi. O'zining murakabligiga ko'ra "kitob" tushunchasi hamon yagona talqinga ega emas. Fransuz yozuvchisi, adabiyotshunos va sotsiolog Rober Eskarpi ta'kidlaganidek: "Barcha tirik borliq singari, kitob ham ta'riflarning qat'iy chegaralariga sig'maydi. Hali hech kim unga aniq va barqaror ta'rif bera olmagan." Kitobshunoslar "kitob" tushunchasi bilan bog'liq bo'lgan eng ko'p qo'llaniladigan quyidagi ta'riflarni ajratadilar:

- Kitob – insonlar orasidagi muloqot vositasi, ommaviy axborot quroli.
- Kitob – adabiyot asari sinonimi, mualliflik ishi mahsuli.
- Kitob – nashr, nashriyot va poligrafiya faoliyati mahsuli.
- Kitob – gazeta, jurnal, buklet, albom va boshqalardan farqli nashrning alohida shakli, kitob betlarining muayyan konstruktiv tashkil etilishi shakli.
- Kitob – yozma xabarning tashkil etilishi shakli. ^[5]

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Kitobxonlik savodxonligi – bu kitoblarni o'qish, tushunish, tahlil qilish va ulardan foydalanish qobiliyati-dir. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun bu qobiliyatni rivojlantirish ularning umumiy intellektual rivojlanishiga, fikrlash qobiliyatiga va o'z-o'zini ta'lim olishga yordam beradi. O'qish jarayonida o'quvchilar nafaqat yangi bilimlarni egallaydi, balki o'z fikrlarini ifoda etish, muammolarni hal qilish va ijodiy yondashuvni rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Insoniyatning tarixiy tajribasi va unda shakllangan aqliy qobiliyatlar nafaqat kitobda, balki "inson tomonidan yaratilgan har bir predmetda – qo'lbola quroldan to zamonaviy elektron hisoblash mashinasigacha" amaliy ro'yobga oshirilgan. Ushbu ma'noda kitob ham istisno emas, u ham "fikrni amalga oshirish jarayonidir". Ammo ijtimoiy tajriba va individual fikr kitobda ikki bor: birinchi bor – qo'lyozmani yaratishda, ya'ni tilda, so'zda, yozuvchida o'z fikrini keng insonlar doirasining mulkiga aylantirish o'tkir ehtiyoji yuzaga kelganida; ikkinchi bor – muallifning fikrini maqsadga muvofiq va bevosita yetkazadigan tarzda va bizning barchamizga qaratiladigan biror-bir yozma xabarni tashkil etish uchun maxsus mo'ljallangan predmetda amalga oshirishini unutmazlik kerak.

Ammo "inson - kitob" tizimida bizni muallif va nashriyotchilar emas, balki kitobxon, bunda ayniqsa kitobxon sifatida boshlovchi – kichik maktab o'quvchisi qiziqtiradi. Berilgan matnni mustaqil o'qishda kitob so'z-belgi bo'lib xizmat qiladi va topshiriq yo'naltirgan fikrlar hamda matn obrazining o'ziga xosligini o'zlashtirish uchun ularning tizimini to'g'ri talqin etish kerak bo'ladi.



Kompetensiya – bu shaxsning ma'lum bir faoliyatni bajarish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, qobiliyat va tajribalarning yig'indisidir. U shaxsning o'z sohasida samarali ishlashini ta'minlaydigan malakalar va sifatlarni o'z ichiga oladi. Kompetensiya, shuningdek, muammolarni hal qilish, qaror qabul qilish va o'z-o'zini rivojlantirish qobiliyatini ham qamrab oladi.

Ta'lim jarayonida kompetensiyalar ko'pincha quyidagi asosiy turlarga bo'linadi:

1. Kognitiv kompetensiyalar – bilim va tushunchalarni o'zlashtirish, analiz va sintez qilish qobiliyati.
2. Amaliy kompetensiyalar – olingan bilimlarni amalda qo'llash, muammolarni hal qilish va ijodiy yondashuv.
3. Ijtimoiy kompetensiyalar – boshqalar bilan samarali muloqot qilish, jamoada ishlash va ijtimoiy mas'uliyatni his qilish.
4. Shaxsiy kompetensiyalar – o'z-o'zini boshqarish, motivatsiya va o'zini rivojlantirish qobiliyati. ^[2]

Kompetensiyalar ta'lim jarayonida o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash, ularning o'z-o'zini rivojlantirishga yordam berish va kelajakda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishlari uchun zarurdir. O'quvchilarda, xususan, boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik ko'nikmalarini shakllantirish butun boshlang'ich ta'lim tizimining muhim elementlaridan biri sifatida qaraladi. Shuning uchun ham maktablardagi kutubxonalar faoliyati bibliografik apparatlar va kitob fondidan o'quvchilarning samarali foydalanishini o'rgatishga qaratilgan. O'quvchining qiziqishlarini qondirish maqsadi va muloqot ishtirokchilari, faoliyat motivlari, o'qitishning mazmuni, usullari va shakllarini o'z ichiga olgan mazkur tizim o'quvchilarning boshlang'ich sinfdanoq kitobga mehrini uyg'otishga, uni keyinchalik kitobxonlik ko'nikmasi sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarining kitobxonlik ko'nikmalarini shakllantirish quyidagi uslubiy shartlar bajarilgan taqdirda muvaffaqiyatli bo'ladi:

- maxsus kitobxonlik darslarida yangi kitobxonlik bilimlarini joriy etish, ularni keyinchalik mustahkamlash va boshqa maktab fanlari bo'yicha darslarda, mustaqil o'quv va bo'sh vaqtni o'tkazishda muayyan o'quv muammolarini hal qilishda tegishli ko'nikmalarni shakllantirish;
- o'quv va kognitiv faoliyatga adabiyotlarni qidirish vazifalarini tizimli ravishda kiritish;
- kitob olamida sayohat qilishni o'rgatishning ko'ngilochar (o'yin) shakllaridan foydalanish;
- o'yin motivatsiyasidan protsessual va samarali motivlarni, o'z-o'zini rivojlantirish motivlarini shakllantirishga bosqichma-bosqich o'tish;
- sinfdan tashqari ishlarni umumiy kutubxona tizimiga kiritish va sinf hamda sinfdan tashqari mashg'ulotlar o'rtasida yaqin aloqani o'rnatish;
- o'quvchilar, o'qituvchilar, kutubxonachilar va ota-onalarning kelishilgan ishini o'z ichiga olgan muloqot ishtirokchilari doirasini kengaytirish. ^[3]

Mazkur sanalganlarga natijaviy holda erishish uchun turli xil usullarni qo'llash foydalidir. Masalan:

- uslubiy va psixologik manbalarni nazariy tahlil qilish;
- boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik bilim va ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha uslubiy tushunchalarni qiyosiy tahlil qilish va aniqlash;
- o'qitish va nazorat qilish tajribalari;
- o'quvchilar so'rovnomasi;
- o'quvchilar faoliyatini pedagogik kuzatish.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kitobxonlik savodxonligini rivojlantirish usullari:

- **O'qish madaniyatini shakllantirish:** O'quvchilarni kitob o'qishga rag'batlantirish maqsadida sinfda kitoblarni muntazam ko'rsatish, ularni o'qish jarayonida muhokama qilish va kitoblar haqida suhbatlar o'tkazish zarur. Bu orqali o'quvchilar kitoblarning qadriga yetadilar.
- **Interaktiv o'qitish usullari:** O'qituvchi darslarda interaktiv metodlardan foydalanishi kerak. Masalan, guruhli ishlarda o'quvchilar birgalikda kitoblarni o'qib, keyin esa o'z fikrlarini baham ko'rishlari mumkin. Bu usul o'zaro fikr almashishga va tanqidiy fikrlashga yordam beradi.
- **O'qish dasturlari va loyihalari:** O'quvchilar uchun maxsus o'qish dasturlari va loyihalar ishlab chiqish, ularni kitoblar bilan tanishtirish va ulardan foydalanishni o'rganishga yordam beradi. Masalan, "O'qigan kitobim" loyihasi doirasida har bir o'quvchi o'qigan kitobi haqida taqdimot tayyorlashi mumkin.
- **Kitobxonlik tadbirlari:** Sinfda kitobxonlik tadbirlari, masalan, "Kitob haftaligi", "O'qigan kitobim" ko'rgazmasi yoki "Yilning eng yaxshi kitobi" tanlovi o'tkazilishi mumkin. Bu tadbirlar o'quvchilarni kitoblarga qiziqtiradi va ularning o'qish motivatsiyasini oshiradi.

Kitoblarga mustaqil murojaat etishda va matnni o'qishda e'tibor qaratish kerak bo'lgan topshiriqda muallifning fikri ham kitobxondan, kitob ichiga, ertakdagidek – "yetti gulf ortiga" yashiringan bo'ladi va birovning yordamisiz matn faqatgina yozuvchilarning o'ylaganidek kitobxon tomonidan mushohada orqali idrok etilishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik ko'nikmalarini shakllantirishning uslubiy asosini o'qitishga tizimli yondashish to'g'risidagi qoidalarga tayanib tashkil etish, shuningdek, aynan boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metodik yondashuvlar ustida ko'proq o'rganish ishlarini olib borish, boshlang'ich ta'lim yoshidagi o'quvchilarning shaxsini rivojlantirish masalasiga e'tibor qaratish va bu boradagi tushunchalarga aniqlik kiritish, boshlang'ich sinf o'quvchilarining motivlari va qiziqishlarini puxta o'rganish tashkil etadi. Bularning barchasi, albatta, boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik ko'nikmalarining izchil va tizimli shakllanishida ahamiyatli ekanini ta'kidlash joiz.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik savodxonligini rivojlantirish kompetensiyasi ularning kelajakdagi muvaffaqiyatlari uchun asos bo'ladi. O'qituvchilar va ta'lim muassasalari bu jarayonda faol ishtirok etishlari, zamonaviy pedagogik usullarni qo'llashlari va o'quvchilarga kitoblar bilan ishlashda ko'maklashishlari zarur. Kitobxonlik savodxonligini rivojlantirish orqali biz yosh avlodni bilimdon, ijodkor va mustaqil fikrlovchi shaxslar sifatida tarbiyalaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2016.
2. Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To'raev A.B. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. – Toshkent, 2015. – 120 bet.
3. Ortiqova D. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida qo'llaniladigan metodlar. International scientific and practical conference "Economics, Management and Digital Innovation in Education: Modern Trends and Approaches", March 13, 2024. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10802446>
4. Jalilova D. Ta'lim jarayonlarining samaradorligini oshirish uchun innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati. "Sifatli ta'lim – taraqqiyot poydevori" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi to'plami. – Toshkent, 2023- yil 20-aprel. – B. 282–286.
5. Abduraxmonova N.N. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini metodik tayyorgarligini takomillashtirish muammosining pedagogik zaruriyati. // Science and Innovation International Scientific Journal, Volume 1, Issue 8. UIF-2022: 8.2. ISSN: 2181-3337. – B. 2114–2121. <http://scientists.uz/view.php?id=3348>
<http://scientists.uz/uploads/202208/B-432.pdf>

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.